

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHI NUTQINI O'STIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Safarqulova Nasiba Olimjonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

*Annotation.* ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini yangilashda o'quvchi nutqini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini yangilash o'quvchi nutqini o'stirishning eng zaruriy hamda metodik asosi ekanligi darsliklar misolida yoritib berilgan.

**Keywords:** boshlang'ich sinf, nutq, ilmiy-metodik asos, nutqini o'stirish.

## НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются научно-методические основы совершенствования речи школьника при возобновлении родного языка обучения в начальных классах. В учебниках показано, что актуализация образования на родном языке в начальных классах является наиболее необходимой и методической основой развития речи школьника.

**Ключевые слова:** начальный класс, речь, научно-методическая база, развитие речи.

## SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH IN THE PRIMARY SCHOOL

*Annotation.* This article discusses the scientific and methodological foundations for improving the speech of a schoolchild when resuming the native language of instruction in the primary grades. The textbooks show that the actualization of education in the native language in the primary grades is the most necessary and methodological basis for the development of the student's speech.

**Keywords:** primary class, speech, scientific and methodological base, development of speech.

Til muayyan tilda so‘zlashuvchilarning nutqiy qobiliyati va imkoniyati bo‘lib, u tafakkurni shakllantirishga, bilimlarni xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborot uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng muhim, bevosita va bilvosita muloqot vositasi. Ona tili har bir millatning ruhi hisoblanadi. Ona tilini unutish bu millatning ertasini unutish bilan tengdir [2; 52-53-b.].

Boshlang‘ich sinflarda foydalanimadigan darsliklar o‘quvchini fikrlashga, qiziqishini oshishiga sabab bo‘ladigan rasmli topshiriqlar, mustaqil ishlashga yo‘naltirilgan tasvirli o‘yinlar bilan boyitilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘quvchining tasavvuri, qiziqishi, mavzularning hayot bilan bog‘liq jihatlari darslikdagi materiallarda aks etishi dars samarasini, o‘quvchining havasi va intilishlarining oshishiga yordam beradi. Kichik yoshli maktab o‘quvchilarining tasavvur ko‘lami juda keng bo‘ladi. Ular asosan ko‘rgan voqealari, rasmlarni uzoq muddatga xotirasida saqlab qoladilar. Darslarni didaktik materiallar asosida, ko‘rgazmalardan unumli foydalangan holda tashkil etilishi bolalarda fanga nisbatan ham katta qiziqish uyg‘otadi. Hayotiy voqelik bilan bog‘langan darslar o‘quvchi dunyoqarashini boyitibgina qolmasdan, ularda Vatanparvarlik hissini ham rivojlantiradi.

Bolalarning tasavvur dunyosi shu qadar keng bo‘ladiki, u yerda butun borliq koinot jilvalanib turadi. Biz bilib bilmassdan shu kengliklarga daxl qilib qo‘yamiz. Ularga o‘zimizning mavjud dunyoqarashimizni singdirishga urinamiz. Aslida bilishimiz kerakki, biz ularga hech narsani o‘rgata olmaymiz. Bizning eng muhim vazifamiz shu bo‘lishi kerakki, ularga o‘zlarini o‘zları rivojlantirishlari uchun imkoniyat qilib berishimiz, uni tabiatan mavjud bo‘lgan qobiliyatlarini yuksaltirishga yo‘naltirishimiz kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bola timsolida shaxsni ko‘ra olishi kerak. Uning fikrlariga hurmat va e’tibor bilan qarashi, rag‘batlantirib borishi kelajakda o‘z fikrini bemalol, hadiksiramasdan bayon qila oladigan mustaqil, komil insonni tarbiyalashi mumkin. Uning g‘oyalariga befarq bo‘lmaslik, soda va beg‘uborligiga daxl qilmaslik zarur.

Buyuk rus yozuvchisi va metodisti Lev Tolstoy “Bolalarni o‘qitishni bas qiling” deganda, aslida, ularning o‘zları ustida ishlashlari uchun imkoniyat qilib berishlikni nazarda tutgan edi. Bugun ta’lim tizimidagi hayotiy kompetensiyaviylikning ham mohiyati bolalarni jonsiz dars jihozlaridan ko‘ra hayotiy faoliyatga olib chiqishni, dars jarayonini hayot bilan bog‘lashni pirovard maqsad qilib qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf darsliklariga texnologiya fanining joriy etilganligi bolalarda bunyodkorlik, dizaynerlik, arxitektura sohalari bo‘yicha zamin hozirlashi hech bir shubhasizdir. Bolalar bu darslarda go‘zallik yaratadilar, ijod qiladilar. Ta’kidlaganimiz kabi harflarni bolaga zo‘raki tiqishtirishdan ko‘ra, shu harflarni obrazlarda tavsiya

etish, ularni qiziqarli ko‘rinishda o‘rgatish qiziqqon bolajonlar uchun yana-da maroqli va quvnoqroq bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya jarayoni shunday tashkil etilganda bolalarga bilim berishning hojati ham qolmaydi. Ular o‘zlari bilimni sizdan tortib olishadi. Faqat buni qanday tashkil qilish ma’qul ekanligini bila olsangiz bas. Bundan tashqari savod o‘rgatish jarayonida har bir harf haqida ertak aytib berishlik bolalarni harfga nisbatan qiziqishini yanada orttiradi. Har bir harfni o‘rganishda ularning nutqini boyituvchi, takomillashtiruvchi kichik, quvnoq, harakatli she’rlar, musiqali qo’shiqlar o‘rgatishimiz dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ularni fanga bog‘laydi. Mavzuni tez o‘zlashtirib olish imkoniyatini beradi. Ertaklar, rolli o‘yinlar orqali ular mavzuni chuqur tushunadilar [3;37-b.].

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bu bosqichning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, nutq har qanday aqliy faoliyat va muloqotning asosi hamdir. O‘quvchilarning taqqoslash, tasniflash, tahlillash, mustaqil va mantiqli mulohaza yuritish, tizimlash hamda umumlashtirish, xulosalar chiqarish singari aqliy faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalari nutq orqali shakllanadi. Bolalar unli va undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rnini, ularning farqini tushunadi, farqlaydi. Tezkorlik, topqirlik, hozirjavoblik xislatlari ham takomillashadi. Bolalarda maqollar va topishmoqlar yodlatish orqali og‘zaki nutq malakalari rivojlantiriladi [4; 197-b.].

Xalq bolalarning betakror o‘qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko‘ra bir-biridan zo‘rg‘a farq qiladigan so‘zlarni hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik humor, sanoq she’rlar-pedagogik ta’sir ko‘rsatishning samarali vositasidir.

Boshlang‘ich talimda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi, ya’ni matn yaratishdagi muvaffaqiyatlari boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishdagi imkoniyatini ham oshiradi. Bundan tashqari, o‘qish ko‘nikmalarining to‘laqonli shakllanishini va imlo savodxonligi ortishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ona tili darslaridagi rasm asosida matn tuzish, reja asosida bayon yoza olish ko‘nikmalari shu asosda shakllantiriladi.

Nutqni o‘stirish o‘qish va imlo savodxonligi, to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘zlashtirish jarayonining shakllaridan biridir. Soz’dan ibora, jumla va bog‘lanishli matn yaratishda to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish qoidalari ustida ishlash, bexato va savodli yozish, asosan boshlang‘ich sinflar ona tili darslarining vazifasi hisoblanadi. Ushbu darslarda bolalar Izohli lug‘at orqali o‘zlari uchun yangi bo‘lgan so‘z ma’nolarini o‘rganadilar. Yozilishini yodda saqlaydilar.

O‘quvchilar boshlang‘ich ta’limning dastlabki bosqichidan boshlab har xil mashqlarni bajarish asnosida mavzu bo‘yicha gapirish, asosiy masalani ochish, fikrni

to‘g‘ri ifodalash va bog‘lanishli nutq nima ekan bilan tanishib boradilar. O‘quvchilarda qayta hikoya, tahlil, tavsif va muhokama nima ekanini anglashga ko‘maklashiladi.

Matn ustida ishlashda bolalarga ilmiy o‘ylangan, ma’no jihatdan o‘zari mantiqiy izchillikda davom etgan, voqealar rivoji seziladigan holda yaratish topshirig‘i beriladi. Tasavvur ko‘lami keng o‘quvchilar matnni fasllarga, undagi o‘zgarishlarga, yurtimiz manzaralariga bog‘lay oladilar. Albatta o‘quvchining xulosasi o‘qituvchining fikridek to‘kis bo‘lmaydi. U jaydari, tarqoq bo‘lsa ham ta’lim amaliyoti uchun olimnikidan qadrliroq, o‘qituvchinikidan qimmatliroqdir. Chunki o‘quvchi hech kimni-muallifni ham, muallimni ham takrorlayotgani yo‘q. Bu o‘quvchining o‘z mustaqil fikri, o‘z xulosasi hisoblanadi.

**Xulosa.** O‘qituvchining vazifasi o‘quvchining fikr ifodalashida mantiq, madaniyat va bilimni ta’minlash, boshqalarning fikriga munosabatda aytganlari uchun javob bera olish hissini tarbiyalashdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Nutq madaniyati Laylo Raupova Toshkent “Innovatsiya-zoyo” 2021
2. Tarbiya darsligi 4-sinf Toshkent “O‘zbekiston” 2020
3. Ona tili o‘qish savodxonligi metodikasi Toshkent “Innovatsiya-zoyo” 2022
4. Bolalarning nutqini o‘sirish nazariyasi va texnologiyasi Toshkent “Innovatsiya-zoyo” 2022.
5. Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi “Development prospects of primary education integration(on the example of exact and natural sciences)” // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali P.221-225. Special Issue-7 (2021)/  
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=11965514625128930189&btnI=1&hl=ru>
6. Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi “Boshlang‘ich sinflarda inetrgratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish” O‘quv qo‘llanma. ISBN 978-9943-8417-9-6. T.:”Tamaddun”. -2022. B.125.